
**THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF TEACHERS ACTIVITIES IN THE
PROCESS OF DISTANCE EDUCATION**

¹Atayeva Bahriniso Abduvaxidovna, ²Mirzayeva Shohida Abduvaxidovna

Senior Lecturer of the Department of Preschool, Primary and Special Education¹, primary school teacher at
Secondary School №4 in Shirin City²

ANNOTATION

This article discusses the possibilities of forming the competence of the teacher in the field of information and communication technologies in the process of distance learning and its application in pedagogical activities.

Keywords: distance learning, information and communication technologies, computer.

INTRODUCTION

Yangi axborot texnologiyalari hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi bu tamoyilning kundan-kunga dolzarb bo'lib borishini ta'minlamoqda. Birinchidan, kompyuterlar o'quv axborotlarini yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi, ikkinchidan, o'rganilayotgan materialning amaliy ahamiyatini ochish orqali, o'qitish motivatsiyasini kuchaytiradi, uchinchidan, kompyuterlar o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi.

Kompyuterlardan o'quv jarayonida keng foydalanish modullashtirish va diferensiallash; o'quv faoliyati xatolarini tashhis (diagnostika) qilish va natijalarni baholash orqali, qayta aloqa asosida, solishirish, o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatishni amalga oshirib amaliyotga tadqiq qilinayotgan obyekt, jarayon va hodisalari modellashtirish va imitatsiya qilish, o'quvchilarni bilimga intilishlarini rivojlantirish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni samarali yechish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy o'qitish jarayonida o'quv jarayonini kompyuterlar orqali boshqarish imkoniyatlar doirasida juda ham keng, ya'ni kompyuter, o'qituvchiga o'z-o'ziga savol berishdan o'quv materialini ketma-ket izohlashgacha bo'lgan imkoniyatlarni yaratib beradi.

O'qituvchilarning masofaviy o'qitish jarayonida kasbiy kompetentsiyalardan shakllantirishda quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetentsiyani shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

MAIN PART

O'zbekistondagi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar mehnat bozori va ta'lim xizmatlarining shakllanishiga olib keldi va bu o'z navbatida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash borasidagi strategiyani o'zgartirdi.

Umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limi yo'nalishi va ixtisos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kompyuterlashgan ta'lim tizimini ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lanish lozim. Buning uchun boshlang'ich ta'limi fani o'qituvchilaridan maxsus fanlar o'qitish uslubiyatini, mutaxassisliklariga oid mahorat va amaliy kompyuter ko'nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Hozirgi kunda jahon andozalariga moslashuv ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'qituvchi kadrlarning asosiy qismi yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi hamda tahlil qila olishi va yangilik yarata oladigan saviyada bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tushintirish jarayonida barchaga mo'ljallangan, ammo uncha murakkab bo'lmagan usullarni qo'llash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, o'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlarga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kompyuter va axborot texnologiyalari – axborotni yig'ish, saqlash, uzatish, o'zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig'indisidan iborat. O'qitishning yangi axborot texnologiyasi deganda – faqat o'quv tarbiya jarayonga qo'llanishi mumkin bo'lgan eng yangi axborot texnologiyalarni tushuniladi.

Bunda multimedia vositalari asosida o'qitish o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

CONCLUSION

Xulosa qilib aytganda XXI asr texnika rivojlanish asridir. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda va hayotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'qituvchining axborot bilan ishlash kompetensiyasi va masofaviy ta'lim jarayonida o'qish imkoniyatlarini amalgam oshirish davr talabidir.

REFERENCES

1. Kenjaboyev O. Zamonaviy axborot texnologiyalari. T. 1999.
2. M.Toshpo'latova va b.q Matematika "2-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma T-2015.
3. N.Abdurahmonova va b.q 2-sinf Matematika darsligi T-2018.